

## Tarixi



### **Xomidov Avazbek Odilovich**

PhD, Kafedra mudiri

Tel. (+998-71) 237-19-26

E-mail: [a.xomidov@tiame.uz](mailto:a.xomidov@tiame.uz)

“Ekologiya va suv resurslarini boshqarish” kafedrasini tarixi 1953 yilda tashkil etilgan "Qishloq va yaylovlar suv ta'minoti" bilan bog'liq. Kafedraning birinchi mudiri davlat mukofoti lauriyati dotsent A.N. Lyapin edi. Kafedraga 1956-1958 va 1960-1970 yillar davomida dotsent P.P Amanatskiy, 1976-1980 yillar davomida dotsent G. G. Podgornov, 1980-1983 yillar davomida dotsent V.A. Demin va 1983-1988 yillar davomida dotsent I. M. Maxmudova mudirlik qilganlar. Turli yillar davomida kafedrada dotsentlar A. A. Isaev, S. S. Xojaev, katta o'qituvchilar R. M. Muhiddinova, D. Yu. Djumaev, assistentlar S.K. Malisheva va S. B. Mechetner mehnat qilganlar. "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" kafedrasini 1979 yilning sentyabrida "Gidrogeologiya" kafedrasidan ajralib chiqdi va uning birinchi mudiri geologiya -mineralogiya fanlari doktori, professor Mirzaev S. Sh bo'ldi. Kafedrada dotsentlar S.A. Murakaeva, R. N. Muxitdinova, katta o'qituvchilar S. A. Anorboev va T. A. Azimovlar mehnat qilishdi. Gidromelioratsiya fakul'teti tarkibida 1989 yili "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" hamda "Qishloq xo'jalik suv ta'minoti" kafedralarini birlashtirilishi asosida O'zbekiston Respublikasi xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Sayidraxmon Shoabdievich Mirzaev rahbarligida "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va qishloq xo'jaligi suv ta'minoti" nomi bilan tashkil qilingan. Respublikamiz xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida shu jumladan oliy ta'lim tizimida izchil islohotlar olib borilayotgan sharoitda, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" vazifalaridan kelib chiqib, institutda suv va qishloq xo'jaligi uchun ekolog mutaxassislar tayyorlashni tashkil qilinishi munosabati bilan 2000 yili 1- sentyabrdan kafedraning nomi "Ekologiya va suv resurslari" deb o'zgartirildi. Turli yillarda kafedrada professor K.G. G'aniev, dotsentlar A. Azimov, A.X. Karimov, O.Y. Jalilova, assistentlar A.A. Baraev, Z. Jo'raev, J. Murotov, I. Abdullaev va boshqalar mehnat qilganlar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3 sentyabrdagi 415- sonli «Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti» ni tashkil etish to'g'risidagi qarori, kun tartibiga qo'yilgan yangi vazifalar va xalqaro integratsiya talablaridan kelib chiqqan holda kafedraning nomi "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" deb o'zgartirildi. Ushbu kafedrada uzoq yillar kafedra asoschisi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi professor, g.m.f.d. Mirzaev Sayidraxmon Shoabdievich rahbarlik qilgan, ulardan keyin shogirdlari professor, t.f.d Saloxiddinov Abdulxakim Temirxo'jaevich, va 2019 yildan 2021 yilgacha texnika fanlari nomzodi, dotsent Karimov A.X. rahbarlik qilgan. Hozirgi kunda kafedra mudiri bo'lib PhD Xomidov A.O. faoliyat

ko'rsatmoqda. Kafedra Ekologiya va huquq fakultetida eng ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan kafedra hisoblanadi. Chunonchi, kafedrada 4 nafar professor, shulardan prof. Abdullaev B.D., prof. b.f.d. Karimov B.K., prof. b.f.d. Ismoilxodjaev B.Sh., prof. Radkevich M.V. faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birgalikda bir nafar xorijiy mutaxassis pedagog Pinar Omur-Ozbek, 8 nafar dotsent, 3 nafar katta o'qituvchi, 5 nafar assistent va 1 nafar stajyor o'qituvchi mehnat qilmoqda. Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda xalqaro tajribaga yega PhD Ziganshina D.R., PhD Boboev X.O., katta xissa qo'shib kelmoqdalar. Bugungi kunda bakalavriaturaning 60812900-Suv taminoti muxandislik tizimlari, 60710400- Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (suv xo'jaligida) va 60420100-Yuristpredensiya (transchegaraviy suv munosabatlari) ta'lim yo'nalishlari hamda magistraturaning 70812308-Suv resurslarini mukammal foydalanish va boshqarish, 70710401-Atrof muhit muhofazasi (qishloq va suv xo'jaligida), 70710406-Chiqindilarni boshqarish mutaxassisliklari bo'yicha magistrantlar tahsil olmoqda. Kafedra yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lib, mavjud professor-o'qituvchilaridan 9 nafari xorijiy mamlakatlarda o'zlarini o'qituvchilik va ilmiy mahoratlarni oshirib kelganlar. Kafedrada doktorantura va mustaqil tadqiqotchilik yo'nalishlari bo'yicha shu kungacha 13 nafar fan doktori va 28 nafar fan nomzodlari tayyorlagan.

---

[Gidromelioratsiya fakulteti](#) [O'qitiladigan fanlar](#) [Ilmiy ishlar](#) [Tadqiqotchilar](#) [Hamkorlar](#) [Kafedra xodimlari](#) [To'garaklar](#) [Dars jadvali](#) [Aloqalar](#)